
DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-06-10-67 **Pages: 605-613**

Oriental Journal of History, Politics and Law

SUPPORT SCIENCE

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl



PHILOSOPHICAL-COMPARATIVE ANALYSIS OF THE PHENOMENON OF JUSTICE IN EASTERN AND WESTERN LEGAL TRADITIONS

Dilmurodjon Nishonov
Independent Researcher at the National University of Uzbekistan
e-mail: d.nishonov@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: justice, legal tradition, East and West, comparative philosophy, legal culture.

Received: 21.10.26
Accepted: 22.10.26
Published: 23.10.26

Abstract: The article examines justice in Eastern and Western legal traditions from a philosophical and comparative perspective. It compares ideas of just order, equality, common good, individual rights and fair procedure in the works of al-Farabi, Yusuf Khass Hajib, Amir Temur, Plato and Aristotle, as well as in modern legal thought. The study distinguishes a universal normative core of justice from its historically and culturally specific forms.

SHARQ VA G‘ARB HUQUQIY AN’ANALARIDA ADOLAT FENOMENINING FALSAFIY-KOMPARATIVISTIK TAHLILI

Dilmurodjon Nishonov
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-mail: d.nishonov@gmail.com
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: adolat, huquqiy an’ana, Sharq va G‘arb, falsafiy komparativistika, huquqiy madaniyat.

Annotatsiya: Maqolada Sharq va G‘arb huquqiy an’analarida adolat fenomeni falsafiy-komparativistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Platon va Aristotel merosidagi adolatli tartib, tenglik, umumiy manfaat, shaxs huquqi va adolatli protsedura haqidagi qarashlar qiyoslanadi. Adolatning umuminsoniy normativ yadrosi bilan uning tarixiy-madaniy ifoda shakllarini farqlash zarurligi asoslanadi.

ФИЛОСОФСКО-КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ ФЕНОМЕНА СПРАВЕДЛИВОСТИ В ПРАВОВЫХ ТРАДИЦИЯХ ВОСТОКА И ЗАПАДА

Дилмуроджон Нишонов
Соискатель Национального университета Узбекистана
e-mail: d.nishonov@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: справедливость, правовая традиция, Восток и Запад, сравнительная философия, правовая культура.

Аннотация: В статье исследуется феномен справедливости в правовых традициях Востока и Запада с философско-компаративистских позиций. Сопоставляются представления о справедливом порядке, равенстве, общем благе, правах личности и справедливой процедуре в наследии аль-Фараби, Юсуфа Хос Ходжиба, Амира Темура, Платона и Аристотеля, а также в современных правовых концепциях. Обосновывается необходимость различать универсальное нормативное ядро справедливости и культурно-исторические формы его выражения..

Kirish. Adolat huquqning eng qadimiy va ayni paytda eng tortishuvli mezonlaridan biridir. Qonun nima uchun majburiy kuchga ega, tenglik qachon haqiqatan tenglik bo‘ladi, hokimiyat qaysi chegarada qonuniy, huquq bilan axloqning kesishgan joyi qayerda - bu savollarning deyarli barchasi adolat tushunchasiga borib taqaladi. Biroq adolatning mazmuni barcha huquqiy madaniyatlarda bir xil ifodalanmagan. Bir an’anada u tartib va umumiy farovonlik bilan, boshqasida huquqlar tengligi va shaxs erkinligi bilan, yana boshqa tarixiy muhitda hukmdorning mas’uliyati yoki nizoni xolis hal etish bilan bog‘langan. Shu sabab adolatni qiyoslash oddiy terminologik o‘xshashliklarni sanash emas, turli huquqiy dunyoqarashlarda bir xil muammo qanday normativ til orqali hal etilganini aniqlashdir.

Adabiyotlat sharxi. Sharq va G‘arbni ikki mutlaqo yopiq, ichki jihatdan bir xil huquqiy makon sifatida tasvirlash metodologik jihatdan zaif. G‘arb an’anasining o‘zida antik polis tafakkuri, Rim huquqi, tabiiy huquq, liberal-konstitutsiyaviy yondashuv va zamonaviy ijtimoiy adolat nazariyalari o‘rtasida katta farq bor. Sharq tushunchasi ham islomiy huquqiy-axloqiy meros, turkiy davlatchilik, Markaziy Osiyo siyosiy tafakkuri va boshqa ko‘plab qatlamlarni qamrab oladi. A.X. Saidov qiyosiy huquqshunoslikda huquqiy tizimlarni faqat tashqi institutlar bo‘yicha emas, ularning manbalari, tarixiy shakllanishi va yuridik tafakkur usuli bilan birga o‘rganish zarurligini

ta’kidlaydi [1]. Shu tamoyil adolat fenomeniga ham tatbiq etilganda, qiyoslashning asosiy birligi “Sharq” yoki “G‘arb”ning o‘zi emas, balki adolatning muayyan funksiyasi va mazmuni bo‘ladi.

O‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda adolat davlat va huquqning legitimligi, inson qadr-qimmati, huquqiy tenglik va ijtimoiy barqarorlik bilan bog‘liq qadriyat sifatida tahlil qilinadi [2; 3]. Zamonaviy tadqiqotlarda Platon va Aristoteldan Forobiy hamda Jon Rolsga qadar bo‘lgan konsepsiyalarni bir tarixiy chiziqda solishtirishga urinishlar mavjud [12; 13]. Bunday ishlar muhim, biroq komparativ tadqiqot uchun qo‘shimcha savol paydo bo‘ladi: bir xil “adolat” atamasi ortida qaysi turdagi normativ munosabatlar turibdi? Mazkur maqolaning maqsadi aynan shu savolga javob izlash, Sharq va G‘arb huquqiy an’analarida adolatning umumiy va farqli qatlamlarini kontekstual qiyoslashdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot nazariy-komparativ xarakterga ega bo‘lib, tarixiylik, kontekstual tahlil, falsafiy talqin va qiyosiy-huquqiy usullar uyg‘unligiga tayandi. Birinchi bosqichda adolat tushunchasi muayyan matn va siyosiy-huquqiy muhit ichida talqin qilindi; ikkinchi bosqichda esa turli an’analardagi funksional o‘xshashliklar va mazmuniy farqlar ajratildi. Bu yondashuv bir tizimdagi tushunchani ikkinchi tizim kategoriyalariga mexanik ko‘chirishdan saqlaydi.

Qiyoslash uchun besh mezon tanlandi: adolatning normativ manbai; adolat subyekti; tenglikning talqini; hokimiyat va umumiy manfaatga munosabat; nizoni hal etishda protseduraning o‘rni. X.T. Odilqoriyev davlat va huquqning mohiyatini qonuniylik, huquqiy tartib, shaxs va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik orqali izohlaydi [2]. U. Tadjixanov va A. Saidov esa huquqiy madaniyatning tarixiy tajriba va qadriyatlar tizimi bilan aloqasiga urg‘u beradi [3]. Ushbu nazariy asoslar adolatni faqat axloqiy ideal emas, huquqiy institutlar va huquqiy xulq-atvorni baholovchi mezon sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Sharqning Markaziy Osiyo falsafiy-siyosiy merosida adolat, avvalo, jamiyatning maqsadi va hokimiyatning axloqiy legitimligi bilan bog‘lanadi. Forobiyning “Fozil odamlar shahri”da siyosiy tartibning qiymati uning inson kamoloti va umumiy saodatga xizmat qilishi bilan o‘lchanadi [4]. Bu yerda adolat mustaqil yuridik texnika emas, u fozil boshqaruv, to‘g‘ri maqsad va jamiyat a’zolarining o‘zaro hamkorligini birlashtiruvchi mezondir. Hukmronlikning o‘zi adolat yaratmaydi: hokimiyatning maqsadi noto‘g‘ri bo‘lsa, tashqi tartib saqlangani bilan u fozil tuzumga aylanmaydi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida adolat siyosiy boshqaruvning markaziy ramziga aylantiriladi. Kuntug‘di obrazi orqali adolat hukmdorning shaxsiy fazilati, davlat tartibining tayanchi va jamiyatdagi muvozanatning sharti sifatida talqin qilinadi [5]. Bu yondashuvning huquqiy ahamiyati shundaki, hokimiyat faqat buyruq berish vakolati bilan emas,

to‘g‘ri o‘lchov va mas’uliyat bilan asoslanadi. Zamonaviy o‘zbek tadqiqotlarida ham “Qutadg‘u bilig”dagi adolatli boshqaruv, mansabdorning axloqiy mas’uliyati va xalq bilan munosabat masalalari davlat boshqaruvi madaniyatining tarixiy manbalaridan biri sifatida baholanmoqda [14].

Amir Temur nomi bilan bog‘liq “Temur tuzuklari”da adolat ko‘proq boshqaruv amaliyoti, intizom va mansabdorlarning javobgarligi bilan tutashadi. Asarda davlatni idora qilishda tartib, xizmatga yarasha baholash, vazifalarni aniq taqsimlash va zulmga yo‘l qo‘ymaslik g‘oyalari ko‘zga tashlanadi [6]. Bu yerda adolatning muhim xususiyati - uning boshqaruvning barqarorligi bilan uzviy bog‘langanidir. Shunday qilib, Markaziy Osiyo an’anasida adolatning uch qatlamini ko‘rish mumkin: maqsadning adolatliligi, hokimning mas’uliyati va boshqaruv amaliyotining me’yoriyligi.

G‘arbning antik huquqiy-siyosiy tafakkurida ham adolat tartib va to‘g‘ri nisbat bilan bog‘langan. Platonning “Davlat” asarida adolat har bir qismning o‘z vazifasini bajarishi va butunning uyg‘unligini buzmasligi orqali tushuntiriladi [7]. Bu talqinda adolat shaxsiy talablar yig‘indisidan ko‘ra polisning to‘g‘ri tuzilishiga yaqin. Shu ma’noda Platonning yondashuvi Forobiydagi fozil shahar g‘oyasi bilan funksional jihatdan qiyoslanishi mumkin. Ammo bunday o‘xshashlikni to‘liq ayniyat deb qabul qilish mumkin emas: ularning metafizik asoslari, siyosiy konteksti va mukammal jamiyat haqidagi tasavvurlari boshqa-boshqa.

Aristotel adolatni yanada differensial tarzda tahlil qilib, umumiy qonuniylik bilan xususiy adolatni ajratadi. O‘zbek tilidagi falsafa tarixi darsliklarida uning taqsimlovchi va tenglashtiruvchi adolat haqidagi qarashlari proporsional va arifmetik tenglikning farqi orqali izohlanadi [8]. Taqsimlovchi adolat ne’mat, mansab yoki yuklamani muayyan mezonga ko‘ra taqsimlashni, tenglashtiruvchi adolat esa almashinuv va zarar yetkazish holatlarida buzilgan nisbatni tiklashni ko‘zda tutadi. Aynan shu farqlash keyingi huquqiy tafakkur uchun katta ahamiyat kasb etdi: “hammani bir xil ko‘rish” bilan “har kimga tegishlisini berish” bir narsa emas.

Yangi va zamonaviy G‘arb huquqiy tafakkurida adolatning markazi asta-sekin shaxsning huquqiy maqomi, erkinlik, teng imkoniyat va institutlarning xolisligiga ko‘chdi. O‘zbek tilidagi zamonaviy falsafiy adabiyotlarda Jon Rolsning yondashuvi teng asosiy erkinliklar va ijtimoiy tengsizliklarni eng kam imkoniyatga ega qatlam manfaatlari nuqtai nazaridan oqlash masalasi bilan bog‘lab sharhlanadi [12; 13]. Bu burilish adolatni faqat yaxshi hukmdor yoki uyg‘un jamiyatning fazilati sifatida emas, shaxslar kelisha oladigan institutlar tuzilishining mezoni sifatida ko‘rishga imkon berdi.

Mezon	**Sharq huquqiy-falsafiy merosida**	**G‘arb huquqiy-falsafiy merosida**

Asosiy savol	Hokimiyat va jamiyat qanday qilib odil tartibga xizmat qiladi?	Erkin va teng subyektlar uchun qaysi tartib adolatli?
Normativ tayanch	Umumiy saodat, mas'uliyat, axloqiy legitimlik, tartib	Qonuniylik, tenglik, huquqlar, xolis institut va protsedura
Tenglik talqini	Maqom va vazifaga mos muvozanat; zulmni cheklash	Proporsional tenglikdan teng huquq va teng imkoniyatgacha
Hokimiyat mezoni	Odil boshqaruvchining mas'uliyati va xalq manfaatiga xizmat	Hokimiyatni huquq bilan cheklash va shaxs erkinligini kafolatlash
Umumiy kesishuv	Inson qadrini himoya qilish, o'zboshimchalikni cheklash, nizoni me'yor asosida hal etish	Inson qadrini himoya qilish, o'zboshimchalikni cheklash, nizoni me'yor asosida hal etish

1-jadval. Sharq va G'arb huquqiy an'analarida adolatning asosiy qiyosiy mezonlari

Sharq va G'arb o'rtasidagi asosiy farqni "jamoa" va "shaxs" qarama-qarshiligiga qisqartirish to'g'ri emas. Sharq mutafakkirlarida insonning qadrini, himoyasini va boshqaruvchining javobgarligini ifodalovchi kuchli individual o'lchov mavjud; G'arbda esa Platon va Aristoteldan boshlab umumiy manfaat, siyosiy hamjamiyat va fuqarolik fazilati markaziy o'rin egallagan. Farq ko'proq normativ urg'uda ko'rinadi: Sharqning ko'plab klassik matnlarida adolat hokimiyatning axloqiy sifati va ijtimoiy muvozanat bilan birikkan bo'lsa, zamonaviy G'arbda u individual huquqlar, institutsional xolislik va protseduraviy kafolatlar orqali kuchliroq ifodalangan.

Muhokama va natijalar. Jadvaldagi farqlar mutlaq chegaralar sifatida emas, tarixiy urg'ular sifatida tushunilishi kerak. Masalan, Forobiydagi umumiy saodat g'oyasi shaxs manfaatini yo'q qilmaydi; aksincha, inson kamoloti siyosiy tuzumning maqsadi sifatida qo'yiladi [4]. Xuddi shuningdek, zamonaviy huquqlar diskursi umumiy manfaatni inkor etmaydi: huquqiy davlat jamoat xavfsizligi, ijtimoiy himoya va solidar mas'uliyatni ham ta'minlaydi. Komparativistik tahlil uchun muhim narsa qaysi tushuncha "ustun" ekanini belgilash emas, turli an'analarda adolatning qaysi muammoni hal qilish uchun ishlatilganini ko'rsatishdir.

Adolatning universal yadrosi haqida ehtiyotkorlik bilan gapirish mumkin. Unga kamida to'rtta talab kiradi: o'zboshimchalikni cheklash, bir xil holatlarni asosli sababsiz turlicha baholamaslik, shaxsning qadr-qimmatini tan olish va nizoni oldindan ma'lum me'yor orqali hal etish. Bu talablar barcha tarixiy tizimlarda bir xil huquqiy shaklda bo'lmagan, ammo aynan ular adolat haqidagi turli konsepsiyalar o'rtasida muloqot imkonini beradi. Huquqiy komparativistika bu umumiylikni "barcha madaniyatlar aslida bir narsani aytadi" degan universalizmga aylantirmasligi kerak.

Shu bilan birga, madaniy o‘ziga xoslikni mutlaqlashtirish ham xavfli. Agar adolat faqat “bizning tarixiy an’anamiz” doirasida tushuntirilsa, kamsitish yoki huquqsizlikni ham an’ana nomi bilan oqlash ehtimoli paydo bo‘ladi. Huquqning zamonaviy mezonlari, xususan, inson qadr-qimmati, teng huquqlilik va sud himoyasi madaniy farqlardan yuqori turadigan minimal kafolatlar sifatida ishlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarning oliy qadriyat sifatida mustahkamlanishi adolatni zamonaviy konstitutsiyaviy huquq tiliga ko‘chiradi [9].

O‘zbekiston huquqiy madaniyati aynan Sharq va G‘arb tajribalarining tarixiy kesishuvini kuzatish mumkin bo‘lgan makondir. Mahalliy davlatchilik va axloqiy-siyosiy tafakkur, islomiy meros, rus va sovet huquqiy ta’siri, mustaqillik davridagi konstitutsiyaviy rivojlanish hamda xalqaro huquqiy standartlar bir qatlamli emas, murakkab huquqiy xotirani shakllantirgan. Shuning uchun zamonaviy adolat konsepsiyasini na faqat tarixiy merosga qaytish, na tayyor tashqi modelni ko‘chirish bilan barpo etish mumkin. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”da adolat, inson qadri va qonun ustuvorligi islohotlarning o‘zaro bog‘liq mezonlari sifatida ilgari suriladi [10]. Bu holat adolatning tarixiy-axloqiy mazmunini institutsional va konstitutsiyaviy mexanizmlar bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Falsafiy jihatdan adolatni uch darajada ajratish foydali. Birinchi daraja - mazmuniy adolat: kimga nima tegishli va nima sababdan? Ikkinchi daraja - protsessual adolat: qaror qanday tartibda qabul qilindi, tomonlar eshitildimi, qoidalar hammaga bir xil qo‘llandimi? Uchinchi daraja - legitimlik adolati: huquqiy tartib inson va jamiyat uchun qaysi maqsadga xizmat qiladi? Sharq klassik merosida uchinchi daraja kuchli, Aristotelda birinchi darajaning murakkab tahlili mavjud, zamonaviy huquqiy davlatda esa ikkinchi daraja alohida ahamiyat kasb etadi. Barqaror huquqiy tizim ushbu uch darajani bir-biridan ajratmay, o‘zaro bog‘laydi.

Daraja	Asosiy savol	Tarixiy urg‘u	Zamonaviy huquqiy ifoda
Mazmuniy	Kimga nima va qaysi mezon asosida tegishli?	Aristotelda taqsimlovchi/tenglashtiruvchi adolat; Sharqda xizmat va mas’uliyat mezoni	Tenglik, proporsionallik, ijtimoiy himoya, kompensatsiya
Protsessual	Qaror qanday qabul qilindi?	Maslahat, xolis hukm, tartib va me’yor	Adolatli sudlov, eshitilish huquqi, asoslantirilgan qaror
Legitimlik	Huquqiy tartib nima maqsadga xizmat qiladi?	Forobiyda saodat; Yusuf Xos Hojibda odil boshqaruv	Inson qadr-qimmati, konstitutsiyaviylik, huquqiy davlat

2-jadval. Adolatni falsafiy-qiyosiy tahlil qilishning uch darajasi

Ushbu uch darajali yondashuv Sharq va G‘arb an’analarini bitta o‘lchov bilan baholashdan saqlaydi. Masalan, klassik Sharq matnida zamonaviy sud protsedurasining barcha kafolatlarini

topishga urinish tarixiy anakronizm bo‘ladi. Xuddi shuningdek, zamonaviy konstitutsiyaviy huquqni faqat hukmdorning shaxsiy fazilati bilan baholash yetarli emas. Qiyoslashda har bir g‘oya o‘z davrining institutsional imkoniyatlari ichida talqin qilinadi, so‘ng uning funksional mazmuni boshqa an’anadagi yaqin muammo bilan solishtiriladi.

Adolatning huquqiy madaniyatga aylanishi esa faqat nazariy konsepsiyalarga bog‘liq emas. Fuqaro sudda eshitilsa, davlat organi qarorini tushuntirsa, mehnat yoki mulk huquqi real himoya qilinsa, adolat abstrakt shior emas, kundalik huquqiy tajriba bo‘lib qoladi. Huquqiy madaniyat nazariyasi nuqtai nazaridan qonunga hurmat huquqiy bilim bilan birga adolatli amaliyotga ishonchni ham talab qiladi [3]. Shu sabab tarixiy merosdagi adolat g‘oyalarini zamonaviy jamiyatga olib kirishning eng to‘g‘ri yo‘li ularni tantanali iqtiboslar sifatida takrorlash emas, xolis protsedura, mansabdor javobgarligi va teng huquqiy himoya kabi institutlarda konkretlashtirishdir.

Komparativ tadqiqot natijasida adolatning kontekstual-dialogik modelini taklif etish mumkin. Model besh bosqichdan iborat: avvalo tushuncha o‘z tarixiy-madaniy muhitida tiklanadi; keyin uning qaysi muammoni hal qilishi aniqlanadi; uchinchi bosqichda adolatning mazmuniy, protsessual yoki legitimlik darajasi belgilanadi; to‘rtinchi bosqichda boshqa an’anadagi funksional analog bilan qiyoslanadi; yakunda esa o‘xshashlik va farqlar zamonaviy inson huquqlari hamda konstitutsiyaviylik mezonlari bilan tekshiriladi. Bunday model qiyoslashni na sun’iy universallashtirishga, na “madaniyatlar o‘zaro tushunarsiz” degan relativizmga olib boradi.

Tenglik va adolatning o‘zaro munosabati ham madaniyatlararo qiyosda alohida e’tiborni talab qiladi. Formal tenglik bir xil qoidaning barcha shaxslarga tatbiq etilishini bildiradi, biroq real hayotda boshlang‘ich imkoniyatlar, ijtimoiy mavqe va himoyaga erishish imkoniyati turlicha bo‘lishi mumkin. Aristotelning proporsional tenglik haqidagi tahlili shu muammoning qadimgi shaklini ko‘rsatadi [8]. Sharq siyosiy tafakkurida esa mansab va mukofotni xizmat, mas’uliyat hamda davlat oldidagi vazifa bilan bog‘lash g‘oyasi uchraydi [5; 6]. Zamonaviy huquq bu tarixiy yondashuvlarni aynan takrorlamaydi, ammo ulardan muhim metodologik xulosa kelib chiqadi: adolat har doim ham matematik bir xillik emas. Ayrim vaziyatlarda teng huquqni ta’minlash uchun zaif tomonning huquqiy imkoniyatini kuchaytirish, diskriminatsiyani bartaraf etish yoki buzilgan muvozanatni tiklash talab etiladi. Shu nuqtada Sharqdagi mas’uliyat va muvozanat g‘oyasi bilan G‘arbdagi teng imkoniyat va kompensatsiya tamoyillari o‘rtasida mazmunli muloqot paydo bo‘ladi.

1. Tarixiy-kontekstual rekonstruksiya

↓

2. Adolat hal qilayotgan normativ muammoni aniqlash

↓

3. Mazmuniy / protsessual / legitimlik darajasini belgilash

↓

4. Funksional analog bilan qiyoslash

↓

5. Inson qadr-qimmati va konstitutsiyaviy mezonlar bilan dialogik tekshiruv

1-rasm. Adolat fenomenini madaniyatlararo qiyoslashning kontekstual-dialogik modeli

Adolatning yana bir muhim ko‘rsatkichi - hokimiyat qarorining tushuntirilishi va nazorat qilinishi. Klassik siyosiy matnlarda odil hukmdor timsoli ko‘pincha shaxsiy donolik, mas’uliyat va maslahatga tayanadi. Zamonaviy huquqiy davlat esa bu fazilatlarni shaxsga bog‘liq holda qoldirmasdan, ularni institutlarga aylantirishga intiladi: vakolat chegarasi belgilanadi, qaror ustidan shikoyat qilish imkoniyati yaratiladi, sud nazorati va protsessual kafolatlar ishlaydi. Shunday ekan, tarixiy Sharq merosidagi “odil boshqaruvchi” g‘oyasini bugungi sharoitda eng samarali davom ettirish usuli mansabdorning yaxshi niyatiga umid qilish emas, adolatni nazorat qilinadigan va qayta ko‘rib chiqiladigan huquqiy protseduraga aylantirishdir. Bu Sharq va G‘arb tajribalarining mexanik qo‘shilishi emas, balki tarixiy axloqiy talabning zamonaviy institutsional shaklga o‘tishidir.

Xulosa. Sharq va G‘arb huquqiy an’analaridagi adolatni bir-biriga raqib bo‘lgan ikki sivilizatsion formula deb emas, turli tarixiy sharoitlarda shakllangan normativ tajribalar deb ko‘rish maqsadga muvofiq. Forobiy va Yusuf Xos Hojibda adolat hokimiyatning maqsadi va axloqiy mas’uliyati bilan chambarchas; Aristotelda u tenglikning murakkab shakllari va buzilgan nisbatni tiklash bilan; zamonaviy huquqiy tafakkurda esa huquqlar, teng imkoniyat va protseduraviy xolislik bilan kuchli bog‘langan. Bu farqlar huquqiy muloqotga to‘sqinlik qilmaydi, aksincha, adolat tushunchasining ko‘p qatlamliligini ochadi.

Adolatning umumiy normativ yadrosi inson qadr-qimmatini tan olish, o‘zboshimchalikni cheklash, huquqiy tenglikni asoslash va nizolarni me’yoriy tartibda hal etish talablarida ko‘rinadi. Uning konkret shakllari esa tarixiy va madaniy kontekstga bog‘liq. Shu bois zamonaviy O‘zbekiston huquqiy madaniyati uchun eng samarali yo‘l milliy tarixiy merosni universal huquqiy qadriyatlarga qarshi qo‘yish emas, ularni konstitutsiyaviylik, qonun ustuvorligi va inson qadr-qimmati doirasida qayta talqin qilishdir. Ana shunda adolat o‘tmishdan qolgan ramz ham, tashqaridan olingan mavhum standart ham bo‘lib qolmay, turli huquqiy madaniyatlar o‘rtasidagi mazmunli muloqotning amaliy mezoniga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Saidov A.X. Qiyosiy huquqshunoslik. – Toshkent: Adolat, 2007. – 480 b.

2. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2018. – 528 b.

3. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-tom. – Toshkent, 1998. – 316 b.

4. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri / tuzuvchi M. Mahmudov. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.

5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig: Saodatga eltuvchi bilim / hozirgi o‘zbek tilida bayon qiluvchi B. To‘xliyev. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 200 b.

6. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2020. – 144 b.

7. Platon. Davlat. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.

8. Sharipov M. Falsafa tarixi (antik davr falsafasi). Darslik. – Toshkent, 2020. – 272 b.

9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

11. Shermuhamedova N. Falsafa. Darslik. – Toshkent: Idris Abdurauf Nashr, 2021. – 663 b.

12. Isroilov D.D. Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar // AGPI ilmiy xabarnomasi. – 2025. – B. 155–159.

13. Maxmudov I. Ijtimoiy adolat: nazariy-metodologik asoslari va zamonaviy talqini // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – 2025. DOI: 10.47390/SPR1342V5I11Y2025N28.

14. Shonazarov J.Sh., Ziyodov H.I. Yusuf Xos Hojibning davlat boshqaruvi madaniyati to‘g‘risidagi qarashlari. – O‘zA, 2026-yil 27-aprel.

15. Fazilov S.Sh. Adolat tushunchasi va ijtimoiy tenglik // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4, No. 10. – B. 325–327. DOI: 10.71337/inlibrary.uz.science-research.138417.